

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUSTAQILLIK DAVRIDA AMALGA OSHIRILGAN TA'LIM ISLOHOTLARI

Bekzodbek Abdullayev

Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi

Abrorbek Shamsiddinov

Andijon davlat universiteti tarix fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11090601>

Annotasiya: Ushbu maqolada mustaqillik davridagi mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, ta'limning uzviy ravishda amalga oshirilishi, uning zamonaviy ilmiy metodlar asosida yo'lga qo'yilganligi va ta'lim sohasidagi o'zgarishlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ma'rifat, ta'lim, islohot, kadr, fan, metod, innovatsiya, malakam, ko'nikma tashabbus, yangicha dunyoqarash.

Аннотация: В данной статье говорится о реформах, реализованных в системе образования нашей страны в период независимости, комплексном осуществлении образования, его реализации на основе современных научных методов, а также изменениях в сфере образования.

Ключевые слова: просвещение, образование, реформа, кадры, наука, метод, новаторство, квалификация, мастерство, инициатива, новый взгляд.

Xalqimiz azaldan ilmi, ma'rifatli kishilarni qadrlagan, ilm ahlini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan. Shundan bo'lsa kerak, xalq orasida "Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni" degan naql keng tarqalgan. Shuning uchun ham muqaddas dinimizda ilm-ma'rifat doimo ulug'lanib kelgan. Imom Buxoriyning "Al jome' as-Sahih" kitobida "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay" deb ilmga urg'u berib o'yganligi bejiz emas. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev barcha ma'ruzalarida ilm-fan, innovatsiya, shijoat va tashabbuskorlik xususida takror va takror ta'kidlaydi. Darvoqe, ta'limtarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, ushbu jarayonda hech qachon tanaffus bo'lmaydi. Va shu o'rinda ta'lim va tarbiya yuksak mas'uliyat talab etadigan jarayondir. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya ijtimoiy islohotlar zanjiridagi eng muhim halqa hisoblanadi. Bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi – deyiladi 2017-yil qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida||gi farmonida. ¹Keyingi besh yilda davlat rahbarining aholini, qolaversa, yoshlarni ilm-fanga chuqur yo'naltirishga qaratilgan tashabbuslari samarasi o'laroq yurtimizda maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari hamda oliy ta'lim tizimida hamda ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatida portlash effekti darajasi yuz berayotganini kuzatish mumkin. Yoshlar orasida kitobxonlikni keng targ'ib etish, kompyuter savodxonligi, kasb-hunar egallashga qaratilgan yangicha yondashuv, o'z bilim va ko'nikmalarini xalqaro maydonda munosib namoyish etishga qodir farzandlarimiz

¹ <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimidagi-islohotlar-buyuk-yangilanishlar-poydevoridir>

kun sayin ko'payayotgani har qanday vatanparvar kishining qalbida iftixor tuyg'ularini uyg'otmasdan qolmaydi. Bugun nafaqat yoshlar, butun boshli aholi globallashuvning shiddatli davrini o'z boshidan kechirmoqdaki, bunday tahlikali davrda millat, mamlakat, genofond, kerak bo'lsa, ma'naviyat xavfsizligi borasida har bir fuqarodan yuksak mas'uliyat talab etiladi. Ayni damda mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi, ularni barkamol shaxs bo'lib voyaga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasidagi eng muhim masalalardan biri sifatida qaralayotgani mamlakatimizning dunyo miqyosidagi xalqaro ko'rsatkichlardagi mavqeyini yanada ko'tarilishiga turtki bo'lmoqda.² Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.³

Xulosa o'rnida, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalaridagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

References:

1. 2020 "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati» DUK
2. Xalq so'zi" gazetasining 2013-yil 23-apreldagi 74-soni.
3. <https://lex.uz/ru/docs/-6788002>
4. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/10211/6708/6462>

² 2.Xalq so'zi" gazetasining 2013-yil 23-apreldagi 77-soni.

³ 1. 2020 "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati» DUK